

**MAKTABGACHA YOSH DAVRIDA RUHIY SALOMATLIKKA TA'SIR
E'TUVCHI OMILLAR**

Abdullayeva Zoboxon Odiljonovna¹

¹ Farg'ona davlat universiteti magistratura bo'limi psixologiya
mutaxassisiligi 1-bosqich magistranti

**MAQOLA
MALUMOTI**

MAQOLA TARIXI:

Received: 01.07.2025

Revised: 02.07.2025

Accepted: 03.07.2025

ANNOTATSIYA:

KALIT SO'ZLAR:

ruhiy salomatlik,
maktabgacha yosh,
biologik omillar,
psixologik rivojlanish,
ijtimoiy muhit, stressga
chidamlilik, genetik
moyillik, bog'lanish
nazariyasi, oila muhiti,
bola rivojlanishi.

Mazkur maqolada maktabgacha yosh davridagi bolalarning ruhiy salomatligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar – biologik, psixologik va ijtimoiy jihatlar chuqur tahlil qilinadi. Ruhiy salomatlik insonning emotsiyonal barqarorligi, stressga chidamliligi va ijtimoiy moslashuvchanligini ifodalovchi muhim ko'rsatkich sifatida qaraladi. Tadqiqot davomida yetuk xalqaro olimlarning ilmiy qarashlari hamda O'zbekistonlik mutaxassislarning milliy sharoitga mos ilmiy yondashuvlari tahlil qilindi. Biologik omillar qatorida genetik moyillik, asab tizimi rivoji va prenatal sharoitlar ko'rib chiqilgan bo'lsa, psixologik omillar sifatida bola temperamentining xususiyatlari va stressga chidamliligi o'rGANildi. Ijtimoiy omillar esa oila muhiti, mahalla tizimi va bog'cha muassasalari faoliyati doirasida yoritildi. Xulosa sifatida bolalar ruhiy salomatligini mustahkamlash uchun ijtimoiy-psixologik xizmatlarni kengaytirish, ota-onalar va tarbiyachilar uchun treninglar o'tkazish, shuningdek, davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi qayd etildi.

KIRISH. Ruhiy salomatlik insonning hayot sifati va farovonligi uchun muhim omillardan biridir. Ayniqsa, maktabgacha yosh davridagi bolalar uchun ruhiy salomatlik ularning kelajakdagi emotsiyal, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Bolalik davrida shakllangan psixologik holatlar inson butun hayoti davomida saqlanib qolishi va turli sohalarda o'z aksini topishi mumkin. Shu sababli, maktabgacha yosh davrida ruhiy barqarorlikni ta'minlash va unga ta'sir qiluvchi omillarni chuqur o'rghanish muhim ilmiy masalalardan biridir.

Mazkur bo'limda ruhiy salomatlik tushunchasi, unga ta'sir etuvchi biologik, ijtimoiy, psixologik va ekologik omillar chuqur tahlil qilinadi. Shu bilan birga, taniqli psixolog va pedagoglarning, jumladan John Bowlby, L.A. Baykova, S.A. Yesenina, N.P. Setko, A.G. Setko, E.V. Bulicheva va boshqa olimlarning ruhiy salomatlik bo'yicha qarashlari yoritildi. O'zbekistonlik olimlarning ham ushbu masalaga oid izlanishlari va ilmiy yondashuvlari tahlil qilindi. Ruhiy salomatlik insonning emotsiyal va psixologik holatini, stressga bardoshliligi, ijtimoiy moslashuvchanligi hamda o'z his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyatini ifodalaydi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ta'rifiga ko'ra, ruhiy salomatlik shaxsning hayotdagi qiyinchiliklarni yengib o'tish, samarali ishslash va jamiyatga o'z hissasini qo'shish qobiliyatidir.

Maktabgacha yosh davrdagi bolalar uchun ruhiy barqarorlik muhim ahamiyatga ega, chunki bu davrda miyaning asosiy tuzilmalari shakllanadi, emotsiyal rivojlanish boshlanadi va asosiy ijtimoiy ko'nikmalar paydo bo'ladi. John Bowlby ning "Attachment and Loss" kitobida bolalar ruhiy salomatligining asosi ona bilan shakllanadigan bog'lanish tizimi orqali rivojlanishi qayd etilgan. Unga ko'ra, bola hayotining ilk uch yili ichida o'zining asosiy parvarishlovchisi bilan mustahkam emotsiyal aloqaga ega bo'lishi kerak. Aks holda, bola stress va tashvish holatlarini boshdan kechiradi, bu esa keyinchalik psixologik muammolarga olib kelishi mumkin.

Ruhiy salomatlik insonning emotsiyal va psixologik barqarorligiga bevosita ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda ruhiy salomatlikning shakllanishi turli biologik omillar, jumladan, genetik moyillik, markaziy asab tizimining rivojlanishi, perinatal omillar, shuningdek, ona organizminning holati bilan bog'liqidir. Ushbu bo'limda biologik omillarning ruhiy salomatlikka ta'siri chuqur tahlil qilindi va bu borada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar yoritildi.

Adabiyotlar tahlili. Genetika insonning barcha biologik jarayonlariga, jumladan, ruhiy holatiga ham ta'sir ko'rsatadi. N.P. Setko va hamkasbleri tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda genetik moyillikning bolalar ruhiyatiga bevosita ta'sir etishi qayd etilgan.

Agar ota-onada ruhiy salomatlik bilan bog‘liq muammolar, masalan, depressiya, tashvish, nevroz yoki bipolyar buzilish mavjud bo‘lsa, bu nasl orqali o‘tib, bolada ham shunga moyillik shakllanishi mumkin.

Taniqli genetik olim Robert Plomin o‘z tadqiqotlarida ruhiy buzilishlarning genetik va atrof-muhit ta’siri orqali rivojlanishini o‘rgangan. Uning fikricha, depressiya va tashvish sindromlarining 30-50% dan ortig‘i irlar omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Plomin va hamkasblarining tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, agar bir xil egizaklardan biri ruhiy kasallikka chalingan bo‘lsa, ikkinchisida ham bu holat yuzaga kelish ehtimoli juda yuqori. Bu esa genetik omillarning ruhiy holatga ta’sirini tasdiqlaydi. Shuningdek, Avstraliyalik olim Ian Craig va uning jamoasi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham shuni ko‘rsatadiki, serotonin va dopamin retseptorlarining genetik o‘zgarishlari insonning depressiyaga moyilligini belgilaydi. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, ushbu neyrotransmitterlarning yetishmovchiligi depressiya, stressga chidamlilikning pasayishi va psixologik beqarorlik kabi muammolarga olib kelishi mumkin.

Bolalarning ruhiy salomatligi markaziy asab tizimining (MAT) rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog‘liq. Homila bosqichida shakllanayotgan miya tuzilmalari kelajakdagi psixologik holatni belgilab beradi. Jean Piaget o‘zining kognitiv rivojlanish nazariyasida bolalarning aqliy va emotsiyal rivojlanishi aynan asosiy miya tuzilmalari shakllanishi bilan bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Piagetning tadqiqotlariga ko‘ra, mакtabgacha yoshdagи bolalar asosan sezgi-motor va preoperatsional bosqichlarda bo‘lib, bu davrda ularning hissiy tajribalari va ijtimoiy aloqalari ruhiy rivojlanishga kuchli ta’sir qiladi. Agar bolalarning asab tizimi yaxshi shakllansa, ular atrof-muhitga yaxshiroq moslasha oladi. Ammo tug‘ma asab tizimi yetishmovchiligi, kislород yetishmovchiligi yoki homila davrida yuzaga kelgan muammolar psixologik beqarorlikka olib kelishi mumkin.

Nobel mukofoti laureati Eric Kandel ham asab tizimining rivojlanishi va psixologik salomatlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib, miyaning neyron tarmoqlari mакtabgacha yosh bolalik davrida qanday shakllanishi ruhiy salomatlik uchun muhim ekanligini qayd etgan. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, bolalik davrida miyada hosil bo‘ladigan neyron bog‘lanishlari stressga chidamlilik, emotsiyal barqarorlik va kognitiv rivojlanish darajasini belgilaydi. Homila davrida yuzaga keladigan biologik omillar bolaning kelajakdagi ruhiy barqarorligiga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu omillar quyidagilardan iborat:

- Ona homiladorlik davrida stress va depressiya holatida bo‘lishi.
- Homiladorlik vaqtida noto‘g‘ri ovqatlanish yoki vitamin yetishmovchiligi.
- Alkogol, tamaki yoki boshqa zararli moddalar iste’moli.

- Tug‘ruq paytida kislorod yetishmovchiligi yoki asab tizimining zararlanishi.

John Bowlby o‘zining bog‘lanish nazariyasida ona va bola o‘rtasidagi emotsiyal bog‘lanish bolaning ruhiy salomatligi uchun hal qiluvchi omil ekanligini ta’kidlagan. Agar ona homiladorlik davrida ruhiy bosim ostida bo‘lsa yoki unga yetarlicha ijtimoiy va psixologik yordam ko‘rsatilmasa, bu bola ruhiyatida kelajakda stressga qarshi zaiflikni shakllantirishi mumkin.

Amerikalik psixolog Diane Papalia va uning hamkasblari olib borgan tadqiqotlarda homiladorlik davrida onaning stress holati bolada kortizol gormoni darajasining ortishiga olib kelishi va bu esa kelajakda depressiyaga moyillikni oshirishi mumkinligi qayd etilgan. Shuningdek, tug‘ruq paytida yuzaga keladigan muammolar, xususan, kislorod yetishmovchiligi (gipoksiya), bolaning tug‘ilish paytidagi jarohatlari yoki boshqa asab tizimi kasalliklari, bolaning keyingi psixologik rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi.

Biologik omillar ruhiy salomatlikning shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Genetik moyillik, markaziy asab tizimining rivojlanishi, prenatal va perinatal omillar bolaning ruhiy barqarorligi va psixologik rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi.

John Bowlby, Robert Plomin, Eric Kandel, Jean Piaget, Diane Papalia kabi olimlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, agar bola tug‘ilishidan oldin yoki bolalikning ilk bosqichlarida muayyan biologik muammolar yuzaga kelsa, bu uning kelajakdagи ruhiy salomatligi va psixologik rivojlanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun homiladorlik davrida onalar uchun maxsus psixologik yordam dasturlarini ishlab chiqish, prenatal sog‘liqni saqlash xizmatlarini yaxshilash va bolalar ruhiyatini mustahkamlashga qaratilgan dasturlar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Bolalarning ruhiy barqarorligi va psixologik rivojlanishi turli omillarga bog‘liq bo‘lib, ulardan eng muhimi ijtimoiy muhit hisoblanadi. Ijtimoiy omillar bolaning hayotga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi, uning ruhiy salomatligiga ta’sir qiladi va kelajakdagи shaxs sifatida rivojlanishiga yordam beradi. Ushbu omillar oilaviy tarbiya, mакtabgacha ta’lim muassasalari, mahalla va jamiyatning ta’sirini o‘z ichiga oladi.

L.A. Baykova va S.A. Yesenina tomonidan yozilgan «Социальное здоровье детей и молодежи» (2011) tadqiqot monografiyasida bolalar ruhiy barqarorligiga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillar chuqur tahlil qilingan. Ularning tadqiqotlarida ijtimoiy muhitning bolaning stressga chidamliligiga, ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga va ruhiy holatini mustahkamlashga qanday ta’sir qilishi o‘rganilgan. Shuningdek, boshqa chet ellik olimlarning tadqiqotlari ham bolalar ruhiyatining shakllanishida ijtimoiy omillarning o‘rni haqida muhim dalillarni keltiradi.

Oila har bir bola uchun asosiy psixologik va ijtimoiy tayanch nuqtasi hisoblanadi. Ota-onalar va boshqa yaqinlar bilan o'rnatilgan emotsional aloqa bolaning ruhiy barqarorligini ta'minlashda muhim o'rinn tutadi. John Bowlby tomonidan ishlab chiqilgan bog'lanish nazariyasi (Attachment Theory) bu jihatdan katta ahamiyatga ega. Unga ko'ra, chaqaloq va ota-onalar o'rtasidagi ishonchli bog'lanish bolaning emotsional rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Agar bola kichik yoshda ota-onaning mehribonligini va doimiy e'tiborini sezmasa, u ruhiy beqarorlikka moyil bo'lib qolishi mumkin.

Taniqli psixolog Mary Ainsworth (1978) tomonidan olib borilgan "Strange Situation" tajribasida bolalar va ota-onalar o'rtasidagi bog'lanish turli toifalarga ajratilgan. U ishonchli bog'lanish (secure attachment), beqaror bog'lanish (insecure attachment) va befarq bog'lanish (avoidant attachment) kabi tushunchalarni aniqlagan. Ishonchli bog'lanishga ega bolalar ko'proq mustahkam ruhiy salomatlikka ega bo'lsa, beqaror yoki befarq bog'lanishga ega bolalar kelajakda psixologik qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.


Munozara. O'zbekistonda oilaviy muhitning bolalar psixologiyasiga ta'siri juda muhim. Mahalla va katta oilaviy tizimning mavjudligi bolalar uchun qo'shimcha psixologik himoya vazifasini o'taydi. O'zbekistonlik olim G'.B. Ergasheva bolalarning ruhiy barqarorligi va oilaviy muhit o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib, ota-onalarning farzandlar bilan to'g'ri muloqot qilish usullarini tavsiya etgan. Uning tadqiqotlariga ko'ra, mehribon va tushunuvchan oilalarda o'sayotgan bolalar stressni kamroq his qiladilar va ijtimoiy muhitga tezroq moslashadilar.

Aksincha, oilada zo'ravonlik yoki e'tiborsizlik mavjud bo'lsa, bolalar ko'proq stress va tashvish holatlarini boshdan kechiradilar. Erik Erikson (1950) o'zining psixosotsial rivojlanish nazariyasida bolalik davridagi ijtimoiy muhit va o'zaro munosabatlar insonning kelajakdagi shaxsiy rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini tushuntirgan. Uning ta'kidlashicha, bolaning dastlabki yillarda o'zini xavfsiz his qilishi va yaqinlari tomonidan qo'llab-quvvatlanishi uning kelajakdagi ijtimoiy va ruhiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bolalar bog'chalari bolaning ijtimoiylashuvi va ruhiy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Lev Vygotsky (1978) o'zining madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasida bolalar ijtimoiy muhit orqali o'rganishini va ularning ruhiy rivojlanishi jamiyat tomonidan shakllantirilishini ta'kidlagan. Unga ko'ra, bog'cha bolalar uchun asosiy ijtimoiy muhitlardan biri bo'lib, u yerda ular o'zaro muloqot qilish, jamoada ishlash va histuyg'ularini boshqarishni o'rganadilar.

N.P. Setko va uning hamkasblari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalar bog'chalarida psixologik muhit muhim rol o'ynaydi. Agar bolalar bog'chasida pedagoglar bolalar bilan iliq munosabatda bo'lsa va psixologik qo'llab-quvvatlash tizimi mavjud bo'lsa, bolalar o'zini xavfsiz his qiladi va stressni kamroq his qiladi. Aksincha, agar bog'chada tarbiya uslublari qattiq nazoratga asoslangan bo'lsa, bolalar xavotirli va ruhiy beqaror bo'lib qolishi mumkin.

O'zbekiston sharoitida mahalla tizimi bolalar tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Mahalladagi ijtimoiy muhit bolaning psixologik rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Qariyalar, qo'shnilar va ijtimoiy xizmatlar bolalarga yordam berishi mumkin. Bronfenbrennerning Ekologik Rivojlanish Nazariyasi (1979) bu jihatdan muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra, bolaning rivojlanishi bir nechta ijtimoiy tizimlar ta'sirida sodir bo'ladi:



O'zbekistonda mahallaning ijobiy ta'siri shundaki, bolalar faqatgina ota-onalar tomonidan emas, balki butun jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Shu bilan birga, mahalladagi ijtimoiy noaniqliklar yoki iqtisodiy muammolar bolalarning psixologik barqarorligiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Ijtimoiy omillar maktabgacha yoshdagi bolalarning ruhiy barqarorligiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Oila muhiti bolaning emotsiyonal rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi, bog'cha esa ijtimoiy moslashuv jarayonini tezlashtiradi. Mahalla va jamiyat bolalarga qo'shimcha ruhiy qo'llab-quvvatlash berishi mumkin. Shu sababli, ijtimoiy omillarni chuqr o'rganish va ularni optimallashtirish bolalar ruhiy salomatligini yaxshilashga yordam beradi. Pedagoglar, ota-onalar va jamiyat birgalikda harakat qilgan taqdirda, bolalar uchun ijobiy psixologik muhit yaratish mumkin bo'ladi.

Psixologik omillar bolaning ruhiy barqarorligida asosiy rol o‘ynaydi. Bunga temperament, o‘ziga bo‘lgan ishonch, stressga chidamlilik va emotsiyal boshqaruv qobiliyatları kiradi. S. Karimov stress va depressiyaning bolalar rivojlanishiga ta’sirini o‘rganib, stress bolalarning miyasi rivojlanishiga va diqqat markazlashishiga salbiy ta’sir qilishini ta’kidlaydi. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, bolalarning stressga uchrash omillari quyidagilardan iborat:

- Oiladagi kelishmovchiliklar.
- Ota-onaning farzandga yetarlicha vaqt ajratmasligi.
- Maktabgacha ta’lim muassasalarida noto‘g‘ri psixologik yondashuv.

Stress va depressiya bolalarda uyqu buzilishlari, diqqat yetishmovchiligi va emotsiyal beqarorlik kabi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Maktabgacha yosh davridagi bolalarning ruhiy salomatligi turli omillar ta’sirida shakllanadi. Biologik omillar genetik va fiziologik rivojlanish bilan bog‘liq bo‘lsa, ijtimoiy omillar oila, jamiyat va ta’lim muassasalarini ta’sirini o‘z ichiga oladi. Psixologik omillar esa bolaning temperament, stressga chidamlilik va emotsiyal rivojlanishi bilan bog‘liq. Mazkur tadqiqot bolalar ruhiy barqarorligini mustahkamlash uchun psixologik xizmatlarni rivojlantirish, ota-onalar va tarbiyachilar uchun maxsus treninglar tashkil etish, bolalar bog‘chalarida psixologik yondashuvlarni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, O‘zbekiston sharoitida mahalla tizimi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini kengaytirish orqali bolalarning ruhiy barqarorligini ta’minalash mumkin.

Xulosa. Maktabgacha yosh davrida ruhiy salomatlik bolalarning kelajakdagি emotsiyal, psixologik va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ruhiy salomatlikka biologik (genetik moyillik, markaziy asab tizimining rivojlanishi, prenatal va perinatal omillar), psixologik (temperament, stressga chidamlilik, o‘ziga bo‘lgan ishonch) hamda ijtimoiy (oila muhiti, bog‘cha, mahalla va jamiyat ta’siri) omillar bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Taniqli xalqaro olimlar — John Bowlby, Robert Plomin, Jean Piaget, Eric Kandel, Mary Ainsworth, Diane Papalia va boshqalarning nazariyalari, shuningdek O‘zbekistonlik olimlar, jumladan G‘.B. Ergasheva va S. Karimov tadqiqotlari ruhiy barqarorlikning shakllanishida bu omillarning o‘zaro uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Ushbu natijalar maktabgacha yoshdagi bolalarning ruhiy salomatligini ta’minalash uchun kompleks yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Jumladan, ota-onalar va tarbiyachilar uchun psixologik treninglar tashkil etish, ijtimoiy-psixologik xizmatlarni kengaytirish, prenatal davrda onalarga emotsiyal yordam ko‘rsatish va bog‘chalarda psixologik salohiyatni

oshirish muhim hisoblanadi. Shuningdek, mahalla va jamiyat tomonidan bolalarga ijtimoiy qo'llab-quvvatlov muhitini yaratish — ularning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aripova, S. M., & BO'RIXO'JAYEVA, H. S. (2016). SOG 'LOM AVLODNING TIBBIY-IJTIMOIY ASOSLARI. O'quv qo'llanma. Toshkent.
2. <https://tibbiyot.info/butun-jahon-sogliqni-saqlash-tashkiloti-jsst-haqida/>
3. Bowlby, J. (1979). The bowlby-ainsworth attachment theory. Behavioral and brain sciences, 2(4), 637-638.
4. Mcleod, S. (2007). John Bowlby attachment theory. Simply psychology.
5. Mcleod, S. (2007). John Bowlby attachment theory. Simply psychology.
6. DJALOLOVA, M. (2023). BOLALARING PSIXOLOGIK SALOMATLIGI VA UNI MUSTAHKAMLASH YO 'LLARI. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(5), 1-5
7. RE, N., & SI, L. Maktabgacha ta'limni tashkil etish kasbi./ Джалолова, М. А. (2023). MAK TABGACHA YOSH DAVRI BOLALARING RUHIY SALOMATLIGI MASALALARI: Djalolova Mohinur Abdusattor qizi Farg'ona davlat universiteti psixologiya kafedrasi o'qituvchisi. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (6), 309-311.
8. Bakhodirovna, K. B. (2023). RESEARCH OF MORPHOLOGICAL FEATURES AND PHYSICAL DEVELOPMENT OF YOUTH. Global Book Publishing Services, 1-99.
9. Bakhodirovna, K. B. (2023). RESEARCH OF MORPHOLOGICAL FEATURES AND PHYSICAL DEVELOPMENT OF YOUTH. Global Book Publishing Services, 1-99.